XALQ DEPUTATLARI SARIOSIYO TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2026-yil 27-mart VII-14-13-8-116-K/26 Sariosiyo tumani

Sariosiyo tumanida 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar to'g'risida.

Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalri bo'yicha doimiy komissiyasida tuman Soliq inspeksiyasi boshlig'ining Sariosiyo tumanida 2026-yil uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat'iy soliq stavkalariga qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdorini belgilash to'g'risidagi taklifi ko'rib chiqildi.

Unda aytilganidek, O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq bo`yicha bazaviy soliq stavkasi respublika hududlari kesimida mutlaq miqdorda belgilangan.

Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445-moddasi 3-bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari soliq stavkasiga 0,7 gacha kamaytiruvchi yoki 1,5 gacha oshiruvchi koeffitsientlarni belgilashga haqliligi;

O`zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 452-moddasi 2-bandida xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari noruda qurilish materiallari uchun (sement ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ohaktoshdan tashqari) qat'iy belgilangan soliq stavkalariga 1,3 baravargacha oshiruvchi koeffisient belgilashga haqliligi ko'rsatilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, keyingi soliq davriga (2026-yil uchun) suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,5 gacha qo'llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat'iy soliq stavkalariga qo'llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq normativ-huquqiy xujjatlar loyihalari muhokamasi portali (regulation.gov.uz)da 15 (o'n besh) kun muddatda turganligi va muhokama davomida hech qanday takliflar tushmaganligi bildirib o'tildi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445- va 452-moddalariga muvofiq, Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun

belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 22-dekabrdagi 01-09726-sonli xatiga asosan taqdim etilgan takliflarni ko‘rib chiqib va muhokama etib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlar to‘g‘risidagi tuman Soliq inspeksiyasining 2025-yil 22-dekabrdagi 01-09726-sonli taklifi ma’qullansin.

2. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasiga 0,7 dan 1,5 gacha qo‘llaniladigan koeffitsientlar miqdori 1-ilovaga muvofiq;

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan 1,3 barobargacha oshiruvchi koeffitsientlar miqdori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimligi Axborot xizmati (J.Ergashov) va “Sariosiyo” gazetasi (A.Azizov)ga suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari hamda noruda qurilish materiallari uchun belgilangan qat’iy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsientlarni ijtimoiy tarmoqlarda va ommaviy axborot vositalarida yoritishini ta’minlash tavsiya etilsin.

4. Mazkur qaror bilan tasdiqlangan koeffitsientlar asosida soliqlarni hisoblash va budjetga tushirilishini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Davlatovga topshirilsin.

5. Mazkur qarorni bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalri bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (S.Asadov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi **ASHUROV MAS’UD ISMOILOVICH**

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2026-yil 27-martdagi
VII-14-13-8-116-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Sariosiyo tumani bo‘yicha yer usti va yer osti suvlaridan foydalangan uchun belgilangan suv solig‘i bazaviy stavkalariga qo‘llaniladigan koeffitsentlar
MIQDORI

T/r	Hudud	**2026-yil uchun taklif 0,7 gacha** (1,1 gacha oshiruvchi koeffitsient)							
		Yer usti				**Yer osti**			
		Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar (749 so‘m)	**Sanoat korxonalari (749 so‘m)**	**Avtotransport vositalarini yuvish (80 250 so‘m)**	**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (40 600 so‘m)**	**Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar, shuningdek YaTTlar (910 so‘m)**	**Sanoat korxonalari (910 so‘m)**	**Avtotransport vositalarini yuvish (16 050 so‘m)**	**Alkogolsiz va alkogolli ichimliklar ishlab chiqarish, (pivo va vinodan tashqari) (40 600 so‘m)**
1	**Sariosiyo**	756.5	756.5	81 052.5	41 066.6	919.1	919.1	16 210.5	41 066.6

Xalq deputatlari Sariosiyo tumani
Kengashining
2026-yil 27-martdagi
VII-14-13-8-116-K/26 -son qaroriga
2-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga asosan Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida Yer qaridan foydalanganlik uchun solig‘i qazib olingan foydali qazilma hajmi bo‘yicha soliq
MIQDORI

(so‘mda)

T/r	**Hudud nomi**	**Bazaviy soliq stavkasi**	**2026-yil uchun taklif *(1.3 barobargacha oshiruvchi koeffisient)***

		1. Arralanadigan xarsangtoshlar *(sement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari)*	**2. Tabiiy bezaktoshdan bloklar**	**3. Marmar**	**4. Granitlar**	**5. Gips toshi, gips va angidrid, ganch**	**6. G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar**	**7. Qurilish qumi, qumtoshlar qum-shag‘al aralashmasi**	**1**	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**7**
1.	**Sariosiyo tumani**	**6 591**	**10 700**	**21 400**	**32 100**	**17 066**	**4 943**	**5 350**	**1**	**1**	**1**	**1**	**1**	**1.3**	**1.3**